

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN  
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

**IPAK YO‘LI TURIZM VA MADANIY MEROS  
XALQARO UNIVERSITETI**

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining  
95 yilligiga bag‘ishlanadi

**K.J.MIRZAEV, S.B.BOBOQULOV, B.K.JANZAKOV**

**RAQAMLI IQTISODIYOT**

**DARSLIK**

**SAMARQAND 2025**

**UO‘K:** 338.2(075)

M 54

**KBK:** 65.05:22.18ya73

**K.J.Mirzaev, S.B. Boboqulov, B.K. Janzakov**

**Raqamli iqtisodiyot [Matn]: Darslik / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “STEP-SEL” MChJ nashriyoti, 2025 - 488 bet.**

**Taqrizchilar:** i.f.n., professor **E.Shavqiyev**

i.f.d., professor **B.Sh.Safarov**

Mazkur darslikda raqamli iqtisodiyotning respublika iqtisodiyotining jadal taraqqiyotidagi muhim o‘rni, ahamiyati asoslangan. Shuningdek, “Raqamli iqtisodiyot” alohida fan sifatida nazariy asoslar bilan bir qatorda raqamli texnologiyalarni, jumladan “blokcheyn”, “bulutli” texnologiya, “kognitiv” texnologiya, “Big data” texnologiyasi, 3 D texnologiyasi, “mobil internet”, “buyumlar interneti”, “sun’iy intellekt”, virtual va to‘ldirilgan reallik texnologiyasi, “biznesda firklar dizayni”, “kripto-valyuta texnologiyalari”, “neyro-texnologiyalar” kabilarni chuqur o‘rganib va ular orqali Respublikamizni ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalishlarini rivojlantirishga ustuvorlik beradi.

Ushbu darslik bakalavriat ta’lim yo‘nalishlaridan 60310100 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha), 60411200- Menejment (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha), 60410100-Buxgalteriya hisobi va audit, 60412500-Marketing (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) bo‘yicha tahsil olayotgan talabalarga mo‘ljallangan hamda shu sohaga qiziquvchi magistrantlar uchun, shuningdek, iqtisodiyot, menejment va marketing sohasidagi mutaxassislar ham foydalanishlari mumkin.

*Darslik institut Kengashining 2024-yil 27-noyabrdagi majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. (4-sonli majlis bayoni).*

**ISBN:** 978-9910-648-27-4

© K.J.Mirzaev va b., SamISI. 2025 y.

© “STEP-SEL” MChJ nashriyoti. 2025 y.

## KIRISH

Iqtisodiyotning jadal rivojlanish davrida raqamli iqtisodiyot va unga aloqador samarali texnologiyalar, xususan, elektron hukumat, raqamli ta'lim, raqamli tibbiyot, elektron tijorat hamda elektron biznes hayotimizga tez sur'atlar bilan kirib kelmoqda. Shu munosabat bilan, davlat va jamiyatning tizimli ta'minlash jadallashtirish maqsadida, mamlakatimizda iqtisodiyotni raqamlashtirish bilan muhim strategik maqsad vazifalar belgilab olingan. Ayniqsa bu borada, O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan bir qator meyorning-huquqiy xujjatlar ushbu vazifalarni amalga oshirishga yangi huquqiy, iqtisodiy imkoniyatlarni yaratib beradi. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun quyidagi asosiy yo'nalishlar belgilangan bo'lib, ular mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan, jumladan:

Birinchi, raqamli iqtisodiy faoliyatni kengaytirish va chuqurlashtirish doirasida raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish. Ayniqsa, bunda muhim raqamli texnologiyalar elementlari mayning, smart kontraktlar, konsalting xizmatlari, emissiya, savdo, saqlash, boshqarish, sug'urtalash va kraudfanding (jamoaviy moliyalashtirish) kabi yo'nalishlarga ustuvorlik berish yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratadi. Shu bilan birga, iqtisodiyotga blokcheyn texnologiyalarni joriy natijasida turli iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni diversifikatsiyalash va modernizatsiyalash uchun yangi imkoniyatlarni vujudga keltirishi ko'zda tutilmoqda;

Ikkinchi, bir qator zamonaviy raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalari uchun yuqori amaliy ko'nikmalarga ega malakali kadrlarni tayyorlashda alohida ahamiyat kasb etadi, sohaga ustuvorlik berishni taqozo etmoqda. Yuqori malakali soha mutahassislarining raqamlashtirishga jalb etish, iqtisodiyot uchun muhim dasturlaridan foydalanish imkoniyatini yaratadi;

Uchinchi, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish asosida innovatsion g'oyalar va startaplarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida davlat organlari va tadbirkorlik subyektlari o'rtasida mustahkam hamkorlikni rivojlantirib, "elektron hukumat"ni shakllantirish imkoniyatini vujudga keltiradi. Ayniqsa, raqamli ishlanmalardan olingan natijalar iqtisodiyotning barcha sektorlariga keng joriy etish boshqaruv tizimini raqamlashtirish yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratadi;

To‘rtinchidan, raqamli iqtisodiyotdan kriptoaaktivlar va blokcheyn texnologiyalarni joriy etilishi iqtisodiyotda yangi iqtisodiy munosabatlarni vujudga keltirib, xorijiy va xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro aloqalarni rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, mazkur yo‘nalishdagi raqamli texnologiyalarni joriy etilishini yuqori malakali xorijiy mutaxassislarni jalb qilish va ularning tajribasidan foydalanishga shart-sharoit yaratadi;

Beshinchidan, 3<sup>D</sup> texnologiyalarni iqtisodiyotga muvaffaqiyatli joriy etish mamlakatda ichki iqtisodiy imkoniyatlarni rivojlantirib, ayniqsa hududiy taraqqiyotda yangi yo‘nalishlarni shakllantirishga imkon yaratadi. Shu bilan birga, mazkur sohaga xorijiy investorlarni va tadbirkorlarni jalb qilishdan imkoniyatlar kengayadi;

Oltinchidan, raqamli iqtisodiyorni joriy etishda sun‘iy intellekt yangi iqtisodiy imkoniyatlarni vujudga keltirib, buning natijasida bir tomondan, sohani zamonaviy texnika va texnologiyalar asosida, nano texnologiyalardan foydalanish rivojlantirishga shart-sharoit yaratilsa, ikkinchi tomondan sun‘iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanib, yuqori malakali mutahassislarni jalb qilish imkoniyatlari yaratiladi.

Ushbu yo‘nalishlar O‘zbekiston iqtisodiyoti raqamli transformatsiya jarayonini tezlashtirish, iqtisodiyotni yanada diversifikatsiya va modernizatsiya qilish va global raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Ta’kidlash joizki, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmonida Yangi O‘zbekistonni hamda raqamli iqtisodning rivojlanishi bo‘yicha quyidagilarni aytib o‘tdi: “...xususiy sektorga o‘tkaziladigan ayrim davlat funksiyalari sonini 3 barobarga oshirish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish”<sup>1</sup> bo‘yicha belgilangan vazifalar raqamli iqtisodiyotni chuqur tadqiq etishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “...iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilanishini ko‘zda tutadigan “Raqamli iqtisodiyot milliy konsepsiyasi”ni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiriq etish kerak”<sup>2</sup> deb ta’kidlaganliklari, shuningdek, respublikamizda raqamli iqtisodiyotni davlat boshqaruv tizimiga tadbiriq qilish

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “2022—2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmoni. Toshkent sh., 2022 yil 28 yanvar, [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6079-son Farmoni. Toshkent sh., 2020-yil 5-oktabr, [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

uchun zamonaviy axborot texnologiyalarni jadal rivojlantirish bo'yicha sharoitlar yaratish, hamda axborot havfsizligini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi 2018-yil 31-avgustda raqamli iqtisodiyotning maqsad va vazifalarini belgilab beradigan "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni joriy qilish va yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida" qarorlarini ham shu tadbirlar jumlasiga kiritish mumkin. Yuqoridagi farmon va qarorlarning muvaffaqiyatli bajarilishi uchun raqamli iqtisodiyotning mohiyati nima va uning asosiy tushunchalari nimalardan iboratligini iqtisodchilar puxta va aniq bilib olishni talab qilinadi.

Jahonda kechayotgan globallashuv va tashqi siyosatda ro'y berayotgan hodisalardan kelib chiqib, O'zbekiston oldida global raqobatbardoshlik va milliy havfsizlik ta'minlash uchun mamlakatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish muhim va hal qiluvchi vazifa sifatida turibdi. Ta'kidlash joziki mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotning ayrim elementlari allaqachon muvaffaqiyat bilan ishlamoqda. Hozirgi kunda, hujjatlar va kommunikatsiyalarning ommaviy ravishda raqamli vositalarga o'tkazilishini hisobga olib, elektron imzoga ruxsat berish, davlat bilan muloqot qilish ham elektron hukumat platformalarga o'tkazilmoqda. Mazkur o'quv qo'llanma mualliflari raqamlashtirish sabablarini tahlil qiladilar, raqamli iqtisodiyot hamda elektron tijorat paydo bo'lishining sabablari va maqsadlarini ko'rib chiqadilar hamda raqamli iqtisodiyot faoliyatini qo'llab-quvvatlashga hizmat qiladigan usullar va texnologiyalarni tahlil qiladilar. Iqtisodiy jarayonlarni raqamlashtirish nafaqat bevosita axborot-kommunikatsiya tarmog'ini, balki mamlakat xo'jalik faoliyatining barcha sohalarini ham qamrab oladigan keng qamrovli tendensiyaga aylanib bormoqda. Internet-savdo, raqamli qishloq xo'jaligi, «aqlli» tizimlari, haydovchisiz transport, shaxsiylashtirilgan sog'liqni saqlash tizimigaham raqamli iqtisodiyot inqilobi kuchli ta'sir qilmoqda. Bunday sharoitlarda alohida kompaniyalar, mintaqalar, mamlakatlar va ularning birlashmalari texnologiyalar, tovarlar va hizmatlarning yangi turlari bozorlarida yangi shakllanadigan uzoq muddatli raqobatli ustunliklarni ta'minlashga intilib, raqamli iqtisodiyot sohasida strategik qarorlarni shakllantirish va amalga oshirish jarayoniga faol kirisha boshlaydilar. Raqamli iqtisodiyot – real voqe'likni to'ldirib turadigan o'ziga hos virtual muhitdir. G'arb mamlakatlari ekspertlari raqamli texnologiyalar iqtisodiyot subyektlari va boshqaruv o'rtasidagi munosabatlar sozlanmagan bo'lsa, ish bermasligi borasida yakdil fikr bildiradilar. Faol axborotlashtirish